

**ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA BARQAROR BIRIKMALARNING  
QO‘LLANILISH DOIRASI**

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O‘zbek  
tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

*Ung‘alova Mashxura Akmal qizi*

*Ilmiy rahbar: O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası  
assistenti Yusupov Sardor Shodi o‘g‘li*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada adabiyotimizning yorqin vakili Abdulla Qahhor hikoyalarida til va nutqda barqaror qo‘llanuvchi birliklarning ishlatilishi haqida fikr boradi. Bilamizki, barqaror birikmalarning nutqqa olib kirilishi nutqning yanada jozibador bo‘lishini ta‘minlaydi. Hikoyalarda keltirilgan maqollar, iboralar asarning originalligini ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqib hikoyalarda bunday birliklarning qo‘llanishiga e‘tibor qaratildi.

**Kalit so‘zlar:** Hikoyachilik, barqaror birikmalar, maqollar, iboralar, originallik.

O‘zbek adabiyotining taraqqiyotiga o‘zining asarlari va har bir aytgan so‘zi bilan ulkan hissa qo‘shgan buyuk adiblarimizdan biri Abdulla Qahhordir.

O‘zbek adabiyotida biz Abdulla Qahhorni “hikoyalar ustasi” deb bilamiz. Abdulla Qahhorning yozgan hikoyalarida romanga teng ma‘no yoritilib berilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ya‘ni shakl jihatidan hikoya, ma‘no jihatidan romanga teng asardir.

Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri”, “Ming bir jon”, “To‘yda aza” kabi hikoyalarida keng qo‘llangan barqaror birikmalarni tahlil qilamiz.

Barqaror birikmalarga ta‘rif beradigan bo‘lsak, nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko‘ra umumiylikni tashkil etadi.

Barqaror birikmalarga biz tasviriy ifodalar, iboralar, maqol, matal va hikmatli so‘zlarni kiritamiz.

Iboralar bu - ma‘nosi bir so‘zga teng keladigan so‘zlar birikmasi yoki gaplardir.

Maqol bu – arabcha “so‘z” degan ma‘noni bildiradi. Maqol “otalar so‘zi” ham deb yuritiladi.

Hikmatli so‘zlar-tugal fikrni anglatuvchi o‘tkir mazmunli qisqa va lo‘nda ibora, bayt yoki jumla.

Abdulla Qahhor ustozimiz yaratgan har bir asarini o‘qisak, asarlarida barqaror birikmalardan shu darajada joy-joyida mahorat bilan foydalanganki, ularsiz asarlarini tasavvur qila olmaymiz. Adibimiz Abdulla Qahhorning ijodiga yuksak baho bergan adiblarimizdan biri O‘tkir Hoshimov “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asarida ustozimizga shunday ta‘rif beradi: “Abdulla Qahhor avvalo o‘z ijodiga nihlik bilan

yondashar, haqiqiy soʻz zargari edi. Domlanning asarlari ,ayniqsa hikoyalaridagi bironta soʻzni qisqartirish, oʻrnini almashtirish yoki boshqa soʻz bilan oʻzgartirish mumkin emas.”[3:111]

Ustozning bir iborasi shoir va adiblar oʻrtasida mashhur boʻlib ketgan edi. “Asar yozayotganda har bir soʻzni mix qilib qoqib qalpogʻini olib tashlang. Toki hech kim sugʻurib ololmasin!”, - deb aytgan ekan.

“Oʻgʻri hikoyasidagi keng qoʻllangan iboralarni tahlil qilsak. O!..Hoʻkiz yoʻq ogʻil koʻcha tomondan teshilgan... “Dehqonning uyi kuysa kuysin, hoʻkizi yoʻqolmasin” [1:18] Bu maqol orqali butun boshli oilaning birgina hoʻkiz ortidan kun kechirishi tasvirlangan.

Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan boʻldi. “Quruq qoshiq ogʻiz yirtadi”, aminga qancha pul olib borsa boʻladi? “Berganga bitta ham koʻp olganga oʻnta ham oz” [1:19]

Bu hikoyada oʻsha davr hayotidagi har bir amaldorning oʻzini oʻylashi, xalq manfaatidan oʻz manfaatini ustun qoʻyishi yoritib berilgan.

- Ha, hoʻkizni uylariga eltib berilsinmi? Axir borilsin arz qilinsin-da!” Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati boʻladi.” [1:20] Bu degani oʻzing uchun oʻzing harakat qil degani.

Keyingi “Toʻyda aza” hikoyasini tahlil qilsak.

“Oʻzi shunaqa boʻladi-ku yaxshining yuzida zuluk ham xol boʻlib koʻrinadi.” [2:101] Agar insonning xulqi goʻzal boʻlsa undagi kichik bir kamchilik ham xuddi yaxshilikdek koʻrinadi. “Domlaga hech bir gʻubor qoʻnishini istamagan boshqalar bu ikki gunohni bir-biriga yegizib” [2:102] uni oqlashga tirishdi.

Domlanning soqolini oldirgani va choyxonachilar bilan salomlashmasdan oʻtganini nazarda tutib shunday ibora qoʻllangan.

“Ming bir jon” hikoyasida ham koʻplab barqaror birikmalar qoʻllangan boʻlib, baʼzilarini tahlil qilamiz.

Hamshira yugurib kirdi, Mirrahimovning sogʻligʻini, kayfini soʻradi, keyin “dardni bardosh yengadi” [2:111] bu xususda Mastura Aliyevadan ibrat olish kerak degan maʼnoga urgʻu berilgan. Bu joyda tomogʻidan ovqat oʻtmay qolgan Mastura Aliyevaning kasallikni bardosh bilan yengayotganligi aytib oʻtilgan.

Abdulla Qahhorning “Oʻgʻri” hikoyasida oʻsha davr amaldorlarining yigʻma obrazi dehqonning hoʻkizi yoʻqolishi voqeasi orqali keng maʼnoda yoritib berilgan.

“Toʻyda aza” hikoyasi orqali inson oʻz tashqi koʻrinishini oʻzgartirishi mumkin, ammo haqiqiy yoshlikni ortga qaytarib boʻlmasligini tushunib yetamiz. “Ming bir jon” hikoyasidagi Mastura Aliyeva obrazi orqali haqiqiy hayotga muhabbat qoʻygan va yashashga boʻlgan ishtiyoqi, harakati barchaga birdek namuna boʻla oladigan badiiy yetuk obrazdir.

Abdulla Qahhorning har bir hikoyasida chuqur ma'no bor. Hikoyalarini o'qigan kitobxon doimo hayotga bo'lgan qarashi keng va o'zgacha bo'ladi va bunday insonlardan har doim tarbiyali kelajak poydevorlari bo'ladi deb umid qilamiz.

Har so'zning o'z joyi bor, har nuqtaning makoni. (Sa'diy Sheroziy) bu shoh satrlar Abdulla Qahhorning har bir asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Abdulla Qahhor yaratgan har bir asarida ona tilimizning qirralarini mahorat bilan ochib bergan. Yozuvchining har bir asarlarini, hikoyalarini o'qigan inson milliy til, so'z qo'llash san'atini o'rganadi. Abdulla Qahhor hikoyalari bilan tanishib, bu hikoyalarda qo'llangan barqaror birikmalardan ham tilimizning boyligiga, naqadar yuksakligiga guvoh bo'lamiz.

Insonlar qalbidan chuqur o'rin olish ortida ham kuchli mehnat samarasi yotadi.

Abdulla Qahhorning "Ming bir jon" va yana ko'plab hikoyalari bilan tanishib shunga amin bo'ldimki, inson oldiga buyuk maqsad qo'ydimi, mana shu maqsadga loyiq harakat qilishi kerak.

Hayot turli voqealarga boy. Turli voqealarni qalb ko'zi bilan ko'ra olsagina, hayot haqiqatlaridan bahra olishni o'rganadi. Insonni asl yashashdan maqsadi nima ekanligini anglab yetadi.

Abdulla Qahhorning hikoyalari bilan tanishib, hayotga haqiqat ko'zi bilan boqishni o'rganamiz. Abdulla Qahhorning mahorati o'zi aytganidek: "Yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek keladigan g'o'ra ichiga qamrab bera oladi". Abdulla Qahhor hikoyalari bilan tanishib qisqa so'zda, chuqur ma'no ifodalashni o'rganamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdulla Qahhor. Hikoyalar va hikmatlar. Kitob. 62 bet.
2. Abdulla Qahhor. "Anor" hikoyalar to'plami. "Ziyo nashr" – 2023. 128 bet
3. O'tkir Hoshimov. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" – Toshkent, Global books. 2021. 320 bet